

2021- yilning yanvar-fevral oylari uchun Xorazm viloyatida qurilish ishlari




Joriy yilning yanvar-fevral oylarida Xorazm viloyatida jami **416,7 mldr. so'mlik** qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **100,8 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi, %



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.



Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.

Joriy yilning yanvar-fevral oylarida jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **18,3** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **107,8 %** ga ko‘p bajarilgan bo‘lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi ko‘rsatkich darajasidan **0,2 %** punktga ko‘payib, **4,4 %** ni tashkil etdi.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, % da




Ma‘lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Urganch shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **56,1 %** yoki 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **173,8 %**), Xiva tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **14,6 %** yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **2,7 m. %**), va Urganch tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **6,7 %**, yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **17,6 %**) ga to‘g‘ri keldi.




Qurilish ishlarining umumiylajmi hajmida kichik korxona va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning yanvar-fevral oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **67,4 %** to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-fevral oylari ko'rsatkichiga nisbatan **0,5 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **101,6 %** ni tashkil etgan holda **280,8** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.



Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **28,2 %** ni tashkil etdi yoki **117,6** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan o'sish **98,1 %** ni tashkil etdi

**Qurilish ishlaring umumi hajmida
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **28,8** mlrd. so'm, nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **387,9** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **6,9 %** va **93,1 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**





**2021- yilning yanvar-fevral oylarida
hududlar kesimida mulkchilik shakllari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
Xorazm viloyati	416,7	28,8	6,9	387,9	93,1
Urganch sh.	110,4	9,3	8,4	101,1	91,6
Xiva sh.	33,3	1,7	5,1	31,6	94,9
tumanlar:					
Bog'ot	23,1	2,8	12,1	20,3	87,9
Gurlan	24,2	2,6	10,7	21,6	89,3
Qo'shko'pir	21,4	1,9	8,9	19,5	91,1
Urganch	40,4	1,0	2,5	39,4	97,5
Hazorasp	18,9	1,9	10,1	17,0	89,9
Tuproqqa'l'a	11,7	0	0	11,7	100,0
Xonqa	24,4	1,1	4,5	23,3	95,5
Xiva	33,3	0	0	33,3	100,0
Shovot	28,1	3,4	12,1	24,7	87,9
Yangiariq	22,1	1,3	5,9	20,8	94,1
Yangibozor	25,4	1,8	7,1	23,6	92,9

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2021- yil yanvar-fevral

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 68,9 % yoki **287,3** mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

68,9 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **14,5** mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 5,0 % ni tashkil etdi.

5,0 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **162,2** mlrd. so‘mni yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 56,5 % ni tashkil etdi.

56,5 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **110,6** mlrd. so‘mni yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 38,5 % ni tashkil etdi.

38,5 %




**2021- yilning yanvar-fevral oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O’sish sur‘ati, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so‘m)
Xorazm viloyati	416,7	100,8	287,3
Urganch sh.	110,4	101,6	79,3
Xiva sh.	33,3	100,9	22,4
tumanlar:			
Bog‘ot	23,1	98,5	12,8
Gurlan	24,2	100,3	17,1
Qo‘siko‘pir	21,4	100,7	13,9
Urganch	40,4	98,8	24,4
Hazorasp	18,9	102,1	12,2
Tuproqqa'l'a	11,7	102,2	8,7
Xonqa	24,4	101,6	16,5
Xiva	33,3	101,9	20,4
Shovot	28,1	100,6	21,1
Yangiariq	22,1	100,5	18,6
Yangibozor	25,4	100,7	19,9

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar
kesimida qurilish ishlari
2021- yil yanvar-fevral oylarida

mldr. so'm

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
Xorazm viloyati	416,7	295,3	96,8	24,6
Urganch sh.	110,4	53,8	47,2	9,4
Xiva sh.	33,3	23,5	9,1	0,7
tumanlar:				
Bog'ot	23,1	16,5	4,6	2,0
Gurlan	24,2	19,2	3,2	1,8
Qo'shko'pir	21,4	16,5	3,5	1,4
Urganch	40,4	32,7	5,3	2,3
Hazorasp	18,9	15,9	2,9	0,2
Tuproqqa'l'a	11,7	9,0	2,5	0,2
Xonqa	24,4	20,3	2,2	1,9
Xiva	33,3	25,4	7,0	0,9
Shovot	28,1	21,0	3,7	3,4
Yangiariq	22,1	19,8	2,0	0,3
Yangibozor	25,4	21,7	3,6	0,1

2021- yilning yanvar-fevral oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari





XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Xorazm viloyati
Statistika boshqarmasi

Investitsiya va qurilish statistikasi
bo‘limi

Aloqa telefoni: (62)224-65-22